

YAXSHILIK VA YOMONLIK MAVZUSIGA DOIR BO‘LGAN O‘ZBEK MAQOLLARNING YAPON TILIDA TARJIMASI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653762>

Soleyeva Mubina Raxmatovna

SamDCHTI Sharq tillar fakulteti

“Uzoq Sharq Tillar” kafedrası

Assistent-o‘qituvchisi

Jo‘ramurodov Doston G‘aybulloyevich

SamDCHTI Sharq tillar fakulteti

“Uzoq Sharq Tillar” kafedrası

Assistent-o‘qituvchisi

Juramurodov1990@mail.ru

ANNOTASIYA

O‘zbek va yapon maqollarining semantik xususiyatlariga bag‘ishlanganligi bois, yapon va o‘zbek xalq maqollarining semantik jihatdan bir-biriga o‘xshash va farqli jihatlarini topish maqolamizning yanada bundan keying ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishga yordam beradi. Shu bois yapon va o‘zbek xalq maqollari tarkibida hajm jihatidan ko‘p va kundalik hayotda faol ishlatiluvchi maqollarning semantikasiga to‘xtalib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: maqollar, semantik ma‘no, tarjima, ekvivalentlik tushunchasi, qiyosiy tahlil, o‘xshash va farqlar.

АННОТАЦИЯ

Поскольку она посвящена семантическим особенностям узбекских и японских пословиц, выявление семантически сходных и различных аспектов японских и узбекских народных пословиц поможет дальнейшему совершенствованию научного исследования нашей статьи. Поэтому в структуре японских и узбекских народных пословиц мы остановимся на семантике пословиц, которые имеют большой размер и активно используются в быту.

Ключевые слова: пословицы, смысловое значение, перевод, понятие эквивалентности, сравнительный анализ, сходства и различия.

ABSTRACT

As it is devoted to the semantic features of Uzbek and Japanese proverbs, finding semantically similar and different aspects of Japanese and Uzbek folk

proverbs will help us to further develop our research. Therefore, in the structure of Japanese and Uzbek folk proverbs we will focus on the semantics of proverbs that are large in size and are actively used in everyday life.

Keywords: *proverbs, semantic meaning, translation, concept of equivalence, comparative analysis, similarities and differences.*

KIRISH

O‘zbek maqollarida eng ko‘p uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid ayrim maqollarning yapon va o‘zbekcha variantlarini tahlil qilgan holda, maqollarning har ikkala tilda uchrovchi o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rib chiqamiz. Kundalik hayotimizda uchrovchi turli xil narsalarni hamisha ikki xil, ya’ni bir-biriga qarama- qarshi jihatlarini orqali bilamiz.

Bular ichida eng ko‘p uchrovchi hodisalardan yaxshilik va yomonlik xislatlaridir. Yoki tilimizda ularni ijobiy bo‘yoqdor so‘zlar va salbiy bo‘yoqdor so‘zlarga ajratamiz.

Yaxshilik va yomonlik leksemalarining maqollarda keng ko‘lamda uchrashi tabiiy holdir. Chunki maqollar xalqning hayotiy haqiqatga nisbatan qarashlarini va munosabatlarini ko‘rsatuvchi hodisadir.

Shu o‘rinda yapon va o‘zbek maqollarida uchrovchi yaxshilik va yomonlik mavzusidagi maqollar xalqning ushbu tushunchalarga bo‘lgan munosabatlarini yaqqol ifoda etadi. Keltirilgan fikrlarimizni isbotlash maqsadida quyida bir qator yaxshilik va yomonlik mavzusidagi ayrim o‘zbek va yapon maqollarining semantik tahlillarini keltirib o‘tamiz.

Quyida tahlil qilmoqchi bo‘lgan yaxshilik va yomonlik mavzusidagi o‘zbek Yapon xalqi va o‘zbek xalqining milliy mentaliteti va urf odatlarining bir-biriga o‘xshash va o‘ziga xos jihatlariga ega .

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbek milliy mentaliteti, o‘zbekona fikrlash yapon xalqi uchun ham nihoyatda qiziq va ochilmagan orol desa ham bo‘ladi. Shunday ekan, jamiyat hayotida muhim o‘rin tutuvchi milliy mentalitetimizga oid tushunchalarni yaponiyalik kitobxonning ongiga yetkazib berish muhim vazifalardan biridir. Buning uchun esa tarjimon dastlab milliy mentalitetning jamiyat hayotidagi rolini tadqiq etishi lozim ko‘rinadi.

Odatda boshlagan ishimizning yakuni uni qanday ruhiyatda boshlashimizga va yon- atrofimizdagilarni bunga bo‘lgan munosabatiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham ishni yaxshi boshlasak yaxshi, aksincha yomon boshlasak yomon yakun topishi maqollarda ifodalangan. Bunga qo‘shimcha qilib quyidagi maqolni ham keltirib o‘tsak bo‘ladi.

O‘zbekcha maqolida: *Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa,*

O'n beshi yorug' bo'ladi. Yapon tilida esa “らくあれば” “あり”[15]

O‘zbekcha tarjimasi: Oqshom kunduzning toji.

O‘zbekcha ekvivalenti: Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor.

Ushbu maqollar orqali xalq o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda mangu yomonlik va yovuzlik bo‘lmasligi yoki har doim ham faqat yaxshilik bo‘lavermasligini ifodalaydi. “*Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, O'n beshi yorug' bo'ladi*” va “*Har kechaning — kunduzi, Har kunduzning kechasi bor*” maqollari orqali xalq har qanday yomonlik ketidan yaxshilik yoki qiyinchilik ketidan faravonlik kelishi tasvirlanadi. Ta’kidlab o‘tganimizdek, maqollar bu xalq og‘zaki ijodining mahsuli bo‘lib, xalqning hayotiy tajribasi va orzu- intilishlarini, umuman olganda hayotga bo‘lgan munosabatini qay daraja baholashining natijasidir.

Badiiy matn ijodkori asar mazmunini anglatishda qo‘llagan tasviriy ifodalar va ko‘pgina stilistik vositalar badiiy tarjimada ham o‘z aksini topishi lozim. Aslyat muallifi va tarjimoni o‘qiydigan kitobxon o‘rtasidagi kommunikativ muloqotning saqlab qolingani, shu millat mentalitetiga oid nazariy axborotlarning adekvat talqin qilinganligiga bog‘liq [4].

Dono xalqimiz hamisha kechirimli bo‘lishni eng yaxshi fazilat deb biladi. Yovuzlikni yo‘qotishning eng buyuk tadbiri yaxshilik ekanligi maqollarda ifodalanadi. Yomonlik ustidan faqat yaxshilik bilan g‘alaba qozonish mumkinligi xalq maqollarida o‘z ifodasini topgan. Shuningdek badiiy matndagi har bir so‘z leksik yoki frazeologik birikmalar har bir kitobxon tomonidan turlicha qabul qilinishi mumkin. Bu har jihatdan reseptorning dunyoqarashi, etnik kelib chiqishi, psixologiyasi, mentaliteti, yashash sharoiti kabi ko‘plab omillarga bog‘liq. Tarjimon adekvatlik sari intilar ekan, tarjimoni asl nusxa bilan taqqoslanganda nafaqat uning psixologik, balki tematik, emosional, stilistik, ritmik-intonasion qiyofasiga ham e’tibor berishi lozim. Keltirib o‘tgan maqollarimizning tahlil natijalaridan quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

-xalq maqollarining ko‘pchilik qismida hayvon obrazlari ifodalangan bo‘lib, ularning asosiy funksiyasi inson xarakterini ifodalashdir;

-hayvon obrazlari qatnashgan maqollar insonlarning asosan ijobiy va salbiy xarakterlarini tavsiflaydi;

-hayvon obrazlari keltirilgan maqollarning yaponcha muqobilvariantlarida aynan bir xil hayvonning nomi ishlatilmasligi yoki umuman hayvon nomi qatnashmasligi maqolning har ikki tildagi umumiy ma’nosiga

ta'sir ko'rsatmaydi

Fikrimizcha, badiiy asarni yaxlit tizimli tahlil qilish albatta qo'l keladi. Matnning stilistik vositalarining xususiyatlarini tahlil qilganimizda mavzu maydoni, ishtirokchilari va ifoda tarzini e'tiborga olamiz. Tarjima ijodiy faoliyat bo'lib, u kognitiv dissonans sharoitida kechadi.

Tarjimonning mahorati ana shu nomuqobillikni bartaraf etadigan vositalarni topishi va qo'llashida namoyon bo'ladi.

NATIJALAR

Tarjimon asarning badiiy-estetik qayta yaratish uchun muallif davrini, ijtimoiy psixologik jarayonlarni o'rganadi. Zero, tarjimon asarning tili, leksikasi, grammatik, fonologik va sintaktik o'ziga xosliklarini aks etirish bilan birga asar ruhiyatini ham reseptorga yetkaza olmasa, adekvatlikni ta'minlashi qiyin. Jumladan yapon tarjimoni Alfred Kurilla o'zining “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” nomli maqolasida “Men ayrim sifat, ot va fe'llar uchun har bir so'zning ostiga bir nechtdan sinonimlar yozib, “ko'p qavatli” yo'lma-yo'l tarjima qilib berishlarini so'radim. Agar maxsus qog'oz bo'lganda edi, men she'rning qanday jaranglashini ham qog'ozga tushirib berishlarini so'ragan bo'lardim.”, - deb ta'kidlagani bejiz emas

O'zbek va yapon tillaridagi yaxshilik va yomonlik mavzulariga oid bir qancha maqollarni semantik tahlil qilib, ma'no jihatidan bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarini o'rganib chiqishga harakat qildik.

MUHOKAMA

Aytish mumkinki, o'zbek va yapon tillaridagi ko'pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar deyarli bir xil ma'no-mazmunga egadir. Faqat har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so'zlardan foydalanilmagan.

Odatda tarjimada turlicha ma'noga ega bo'lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma'no anglatishi kuzatiladi. Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir yapon va o'zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo'lsa, yomonlik insoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko'rsatiladi.

Xullas, yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid o'zbek va yapon xalq maqollari semantik jihatdan deyarli bir-xil ma'no anglatadi.

Darhaqiqat, mazkur mezonlar badiiy tarjimaning asliyatga yaqinligini aniqlashdagi asosiy o'lchov me'yorlaridir. Yuqori darajadagi lingvistik muvofiqlik va kommunikativ muvozanatning ta'minlanganligi tarjimaning badiiy yetuk chiqqanligini anglatadi. [8]

Bunday tarjimada tillarning stilistik vositalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asar mazmunini va badiiy tasvir va ta’sirni reseptorga aniq yetkazib berish uchun esa tarjimon turli tarjima usullarini qo‘llashi lozim bo‘ladi.

Bugungi kunda tarjimashunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o‘zbek tilidan yapon tiliga tarjima qilish jarayonida qo‘llaniladigan usullarni o‘rganish, aniqlash, ularni qiyosiy tahlil qilish va bevosita tarjimasida matnning stilistik vositalarga qanday yondashish lozimligini o‘rganishdan iborat.

O‘zbek maqollarining semantik xususiyatlarini o‘rganish jarayonida, ayrim mavzudagi maqollarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rib chiqdik. Uchinchi bobda har ikkala tildagi eng faol mavzudagi maqollarning tahlillarini qilgan holda quyidagi xulosalarga keldik.

Yapon maqollarini o‘zbek tiliga yoki o‘zbek maqollarini yapon tiliga tarjima qilish va maqollarning muqobil variantlarini keltirish jarayonida aynan ma’no mazmunini saqlab qolish juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham maqollar bilan ishlash avvalo ularning semantik xususiyatlarini, har bir maqolning asl ma’no-mazmunini chuqur o‘rganib chiqishni talab qiladi.

Aks holda xato tahlil qilingan maqol boshqa tilda o‘zining asl ma’nosi butunlay yetkaza olmasligi mumkin; Yapon va o‘zbek tilidagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarning katta ko‘pchiligi semantik jihatdan bir-birini ta’minlaydi. Har ikki tildagi mehnatsevarlik mavzusidagi maqollarda insonni mehnatkash bo‘lishga undash, dangasalik va ishyoqmaslik insonning eng jirkanch illati sifatida qaraladi;

O‘zbek va yapon tillaridagi ko‘pchilik yaxshilik va yomonlik mavzusiga oid maqollar ham deyarli bir xil ma’no- mazmunga egadir. Faqat har ikki tilda aynan bir-biriga mos keladigan so‘zlardan foydalanilmagan. Odatda tarjimada turlicha ma’noga ega bo‘lgan maqollarni semantik jihatdan chuqur tahlil qilish jarayonida bir xil ma’no anglatishi kuzatiladi.

Yaxshilik va yomonlik mavzusiga doir yapon va o‘zbek maqollarining barchasida yaxshilik eng buyuk ezgu ish sifatida baholangan bo‘lsa, yomonlikinsoniyatning eng razil va jirkanch tomoni ekanligi ko‘rsatiladi. Tarjimon bilish lozim bo‘lgan asosiy lingvistik ma’lumotlar sirasiga quyidagilar kiradi – a) troplar va ularning turlari b) muloqot holati (ya’ni til kommunikatsiyasi amalga oshirilayotgan janr); v) badiiy adabiyot stilistikasi haqida ma’lumotlarni bilish; Badiiy asardagi asosiy personajlarning xarakteridagi milliy kolorit va milliy mentalitetga oid stilistik vositalarda troplarning ishtiroki va leksik elementlar tarjimon tomonidan ajratib olib o‘rganilishi; Yapon tilida yaratilgan badiiy asarlardagi davr ruhiyatiga oid uslubiy tasviriy vositalarning arxaik so‘zlar,

orfoqrafik uslublar orqali ifoda etishi; asliyat ohangi (She'riy va epik dostonlar tarjimasida)ni tinglab ko'rilishi. Bunda asliyat tili ma'no nozikliklariga e'tibor bilan yondashish ma'qul [7].

XULOSA

Asliyat tilining kommunikasiyalarga oid ma'noviy bilimlarni anglash. Ba'zan vositachi tilning ishtiroki bir-biriga qarama-qarshi dunyoqarash vakillari bo'lgan tarjimonlar ishini chalkash ko'chaga olib kirishi mumkin. Bu esa asliyatga yaqinlashuvning pasayishiga olib keladi.

Badiiy asardagi uslubiy tasviriy vositalarni zarurat tug'ilganda asliyat tilida normal hisoblangan ammo tarjima tilida kitobxon mentaliteti va dunyoqarashi hazm qilmaydigan uslubiy tasviriy vositalarga asar mazmunidan uzoqlashmagan holda almashtirish ma'qul yechim sanaladi. Har bir millat badiiy tasvirni turlicha qabul qiladi va tushunadi. [11]

Tarjimon bu kabi tasviriy ifodalarni tarjima qilishdan avval tarjimani o'qigan kitobxonning ma'lumotini qabul qilish darajasi va tasavvur hosil qilish effekti asliyatni o'qiganda paydo bo'ladigan tasavvurga necha foiz yaqinligini aql tarozisiga tortib ko'rishi kerak. Badiiy asar tarjimalarida millat xarakteridagi individual belgilar, milliy xarakter, ruhiyatidagi va atrof-muhitga bo'lgan munosabati, harakatlari, qilmishlari, his-tuyg'ulari albatta stilistik vositalar orqali asarda o'z ifodasini topadi.

Tarjimada turli millatlar madaniyatida mavjud milliy mentalitetni ochib beradigan vaziyatlar va ularni yetkazish usullari haqida fikr yuritilar ekan, bunday manzaralarni o'zgartirish, o'zlashtirish aslo mumkin emas.

Zero, bunda asliyatning milliylikiga zarar yetadi. Shunday ekan, milliy mentalitet aks etgan asarning tarjima matnida o'quvchiga yetkazishning asosiy talablaridan biri asliyat matniga xos milliy madaniy tushunchalarni kitobxonga to'laligicha yetkazish. Bu borada transliterasiya va izohli tarjima usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-son farmoni, hujjatlar to'plami, 2017-y., 6-son
2. Salomov G'. Maqolalar va idiomalar tarjimasi. - T.: Fan, 1961. - 162 b.
3. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. - T.: Fan. 1975. - 156 b.
4. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir. T.: O'zbekiston Madaniyati. –1965. - 213 b.
5. Beruniy A. R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Tanlangan asarlar. T. 1. – T., 1968. -198 b.

6. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. -T.: O‘qituvchi, 1990. – 303 b.
7. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. –207 b.
8. Razzaqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor. – Toshkent, 1965.–236 b.
9. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi T.: 2000. – 156 b.
- 10.. Qosimov. B , Ahmedov. S “Adabiyot” O‘qituvchi. 2007-yil. 227 b.
11. Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari . – T.:Sharq, 2005. –508 b.
12. O‘zbek xalq maqollari, 1-tom T.: Fan. 1987. – 370 b.
13. Salomov G’. Tarjimon mahorati. T., 1979. 240 b.
14. Sattorov U. U. Madaniyatlararo muloqotda emotsional ekspressivlikning ifodalanishi// Respublika ilmiy amaliy anjumani materiallari. S., 2012: 178-179 b.
15. Shuhratova, V., & Amanullayeva, K. (2021). KAZUO ISHIGURONING" DAFN ETILGAN GIGANT" ASARIDA FANTASTIK G‘OYALAR TALQINI. Интернаука, (28-2), 67-68.
16. Tuhtasinov, I., & Lutfilloeva, F. (2019). The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models. *Available at SSRN 3458780*.
17. みんなの日本語 Tarjima va gramatik tahlil Toshkent: 2007. 149 b .
18. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УЗГУМЯ.
19. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
20. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). The days gone by. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
21. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching*, Materials of the Republican scientific-practical conference, Samarkand.
22. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.

23. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In Mat. International scientific and creative forum" Youth in science and culture of the XXI century". Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
24. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. Вестник Челябинского государственного университета, (2 (256)), 122-125.
25. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. Общество и инновации, 2(2), 111-117.
26. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в. (pp. 229-231).
27. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (3 (80)), 5-10.
28. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (78)), 11-18.
29. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
30. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In Язык и культура (pp. 226-231).
31. Tuhtasinov, Ilhom and Lutfilloeva, Fahriniso, The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>
32. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
33. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
34. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданият мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.

35. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
36. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
37. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
38. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
39. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
40. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
41. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
42. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
43. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
44. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
45. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.
46. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
47. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.

Jurnallar:

48. クルボノヴァ・グルノザ 「『源氏物語』の女子教育—光源氏による明石の姫君の「后がね」教育—」『文化継承学論集』第 10 号（明治大学大学院文学研究科）、pp.13-25、2014 年 3 月。

Vebsayt

49. <http://catalog.jpfmw.ru:3535/index.php?url=/notices/index/IdNotice:887/Sour>